

PAPER

QURILISH TERMINOSISTEMASIDA METAFORIK TERMINLARNING KONSEPTUAL VA KOMMUNIKATIV ROLI

Ostonova Ramziya ^{1, *}

¹ O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Toshkent, O'zbekiston

² tayanch doktoranti

* ostonova_ramziya@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola qurilish terminosistemasidagi termin-metafora, termin metaforalar modellari, termin-metafora tahlillari, termin-metaforaning qurilish diskursidagi konseptual va kommunikativ rolini o'rganishga qaratilgan. Termin-metafora nafaqat she'riyatda balkim ilmiy-texnikadagi murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli tilda ifodalashga xizmat qiladi.

Key words: termin-metafora, qurilish diskursi, termin-metafora modellari, artefakt termin-metafora, termin-metafora tahlili

Introduction

Kirish

Metafora murakkab tushunchalarni soddalashtirish va yorqin tasvirlarni yaratish uchun samarali vosita bo'lib tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, to'siqni engishga yordam beradi va kundalik tilda, bu ma'lumotni yanada qulayroq qiladi. Fan va texnika tilida metaforalardan foydalanish ikki tomonlama vazifani bajaradi –bir vaqtning o'zida yangi hodisalar va ob'ektlarni tavsiflash

uchun bir qator yangi leksik birliklarni yaratadi va mavjud bo'lgan yangi hodisalar va amaldagi hodisalar o'rtasidagi metafora asosida yotadigan bog'liqlikni shakllantiradi. N.S.Sharafutdinova quyidagilarni tavsiflaydi: terminologik metaforizatsiya "nomlashning semantik usuli"sifatida mavzu, xususiyat yoki funktsional asosida maxsus tushunchani taqqoslashga asoslangan ilmiy va kundalik ob'ektlarning o'xshashliklari va chog'ishtirishidir". An'anaga ko'ra, metaforizatsiya she'riy nutqni "bezatish"vositasi va vositasi sifatida qabul

Compiled on: October 18, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

qilingan, ammo u ilmiy va texnika uchun amaldagi nutqhamdir. Ushbu mavzu bo'yicha falsafa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, kognitivistika kabi turli xil bilim sohalari olimlari ko'p yillik munozaralar olib borishmoqda.

Muhokama

Yu.A Kvach hamda K.V.Andreyevna qurilish terminologiyasidagi termin-metaforalar leksik-semantik maydonini quyidagicha klasifikatsiya qilishgan:




Рис. 1

1. Yu.A Kvach qurilish terminologiyasidagi termin-metaforalar leksik-semantik maydoni klasifikatsiyasi. 1.Artefakt metafora: bu insoniyat qo'l mehnati tomonidan yaratilgan buyumlar, kiyim-kechak va madaniy ob'yektlarga qiyos asosida yaratilgan metaforadir. Artefakt metaforalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- apron-kiyim kechak to'plamida "fartuk" ammo, qurilish terminologiyasida bu so'z "beton plita-eroziya yoki yemirilishni oldinini olish uchun qilinadigan mustahkam qatlam.Vizual ko'rinishda ifodalasak:



Рис. 2

- Accordion partition- garmon musiqa asbobi bo'lib, bu birikmada "accordion"-buklama deb tarjima qilinsa tarjimadagi aniqlik uchun xizmat qiladi ya'ni, accordion partition-buklama to'siq, garmonsimon devor, ko'chma devor-ofislar, zallar, restoranlarda keng qo'llanilib, joyni kerakli paytda bo'lish yoki birlashtirish uchun ishlatilinishi.Vizual rasmda ifodalasak: 2.Antropomorfik metafora: bu odamning ta'na a'zolari,fe'l-atvori yoki ijtimoiy xatti harakatlari asosida yaratilgan termin-metaforadir.Misol uchun: • hot face-so'zma-so'zma tarjima qilganda issiq yuz, ammo qurilish terminologiyasi bu termin issiqlikka chidamli buyum yoki ob'yektlarni ifodalash uchun ishlatilinishi.Misol uchun, hot face brick-issiqlik ta'siriga chidamli g'isht. • head anchorage-qurilish terminologiyasida bu birikma armatura yoki beton konstruksiyalarini yuqori qismida mahkamlash tizimini bildiradi. 3.Tabiiy unsurlar qiyosidagi metafora: bu turdagi metaforada biror terming tabiat, hayvonlar va o'simliklar obrazi yoki xususiyatlari ko'chiriladi. • swan neck pipe-

oqqush bo'yniga o'xshagani uchun oqqush bo'yin quvuri, qayishqoq quvur.

• eagle window-so'zma-so'z tarjima qilinganda burgut deraza aslida esa baland , keng ko'rinishli deraza ma'nosida ishlatilindi. Vizual rasm ko'rinishi:



Рис. 4



Рис. 3

4. Ijtimoiy munosabatlar qiyosidagi metafora: ijtimoiy munosabatlar obrazi terminning funksional xususiyatlariga ko'chiriladi. Misol uchun: • buried drain- "buried " ko'milgan tarjimaga ega, ushbu misolda esa yer ostida ko'milgan quvur yoki kanalizatsiya tizimini ifodalaydi.

Natijalar

Yu.A Kvach hamda K.V.Andreyevna qurilish termin-metaforalarining leksik-semantik maydonlarining izlanishlarida umumiy 300 ta termin-metaforadan 77 tasi ya'ni 26,2 foiz tabiiy unsurlar qiyosidagi termin-metaforaga tegishliligi tahlil qilingan shundan Hayvonlar, qushlar va hashorotlar qiyosidagi metafora 45 ta, jonsiz narsalar qiyosidagi metafora 9 ta ekanligi ko'rsatiladi . Tahlilalardan xulosalashimiz mumkinki, termin-metaforalar qurilish terminosistemasining muhim qismi hisoblanib, sezilarli darajadagi terminlar metafora bilan ifodalaniladi. Termin-metafora naqafar she'riyatda uslubning jozibadorligini ko'rsatadi shu bilan birga ilmiy va texnika bilan bog'liq sohalarda lingvistik omillarni sodda tilda ifodalash hamda mutaxassislar orasidagi kommunikativ me'zonlarni aniqroq ifodalash funksiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi.

References

1. A.Katysheva "Metaphorical terms as part of construction terminology in English and Russian" Sib Skript 2025 Tom 27, N1.
2. N.S.Sharafutdinova, (2004).

Terminologicheskaya metaforizatsiya
(na materiale lingvisticheskikh terminov
nemetskogo i russkogo yazykov)
[Metaphorization in linguistic terminology
(based on the German and Russian languages)].
In Russko-nemetskie kulturnoistoricheskie
kontakty. Tolyatti: TGU. Pp. 84-86. (In Russ.).

3. Tercedor S. Metaphor and metonymy in
specialized language // A Cognitive Linguistics
View of Terminology and Specialized Language.
Boston: De Gruyter Mouton, 2012. P. 33-72.
4. Yu.A.Kvach "Metaphorical terms as part of
English and Russian construction terminology"
Типологические и пологические и сопоста-
вительные 2023, 67 bet.